XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 30 - dekabr VI-100-161-10-149-K/23 Bekobod shahar hokimligi

Bekobod shahrining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi 886-son “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-son “Toshkent viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi 886-son “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-son “Toshkent viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Bekobod shahar mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 65 645 600,0 ming so‘m va xarajatlari 166 399 144,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga solinadigan budjetlararo transfertlar miqdori 100 693 544,0 ming so‘m shu jumladan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar (Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo, mobil aloqaga hamda tamaki mahsulotlari

uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan aksiz solig‘i) 17 697 000,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 3-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetiga soliq va yig‘imlardan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan shahar mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Bekobod shahri bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida (bunda shahar budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) 1 475 161,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar mahalliy budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

8. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 756 754,0 ming miqdorida belgilansin.

9. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Safarov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Baykuziev), Davlat soliq inspeksiyasi (F.Mamatqulov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar,

oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

shahar mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Davlat soliq inspeksiyasi (F.Mamatqulov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

11. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari va mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya xulosasi asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

12. Shaharlar hokimligi:

Shahar budjeti jami xarajatlarida ko‘zda tutilgan mablag‘lar hamda shahar mahalliy budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda mahallalardagi hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

13. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Safarov) xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati tegishli bo‘lim va tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

14. Davlat soliq inspeksiyasi (F.Mamatqulov) Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

15. Shahar hokimligi matbuot xizmati:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va shahar hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

16. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

17. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Q.Safarov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi raisi



N.BABAYEV

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-100-161-10-149-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Bekobod shahar shahar budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 725 300
2	Aylanmadan soliq	2 655 900
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	15 698 700
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 855 000
5	Aksiz solig‘i jami	1 564 500
	shu jumladan:	
	-yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdan aksiz solig‘i	1 564 500
6	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 851 500
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 001 200
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 158 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 335 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	17 587 500
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	213 000
JAMI		**65 645 600**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-100-161-10-149-K/23-son
qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar		Miqdori
	Xarajatlar - jami	**166 339 144**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**112 965 915**
1.1	Maorif	22 467 675
	- maktabgacha ta’lim	8 320 454
	- umumiy ta’lim	14 147 221
1.2	Sog‘liqni saqlash	80 772 028
1.3	Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 517 868
1.4	Sport	7 876 021
1.6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	36 800
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	295 523
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**15 415 295**
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
2.2	Obodonlashtirish	10 171 583
2.3	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish xarajatlari	467 821
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	775 891
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**19 134 881**
4	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 475 161**
5	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**17 347 892**

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-100-161-10-149-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

(ming so‘m)

T/r	Daromadlar	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	Shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar*	Xarajatlar
1	65 645 600	100 693 544	17 697 000	166 339 144

**Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo, mobil aloqaga va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan aksiz solig‘i*

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-100-161-10-149-K/23-son
qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun shahar mahalliy budjetiga soliq va yig‘imlardan ajratmalar normativlari

T/r	Soliq va yig‘imlar	Ajratma me’yori (%)
	Rag‘batlantiruvchi daromadlar	
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	5
	Biriktirilgan daromadlar	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	100
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100
6	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	100
7	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100
	Viloyat va shahar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	
8	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	10
9	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10
10	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20
11	Aylanmadan olinadigan soliq	30
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	75